
XTB XABARLARI

XTB XABARLARI

O'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida Rishton tumani XTB tasarrufidagi 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi 11-sinf o'quvchilari Rishton tumanidagi 9223 sonli harbiy qismga olib borildi. Harbiy qism xizmatchilari o'quvchilarga qurol- yarog' va xizmat itlarini ko'rsatdilar.

Yoshlarni jismonan chiniqtirish va barkamol qilib tarbiyalash maqsadida Rishton tumani XTB tasarrufidagi 47- umumiy o'rta ta'lim maktabida o'quvchi-yoshlar o'rtasida sportning shaxmat turi bo'yicha musobaqasi bo'lib p'tdi. Musobaqada 5-6-7-8 sinf o'quvchilari ishtirok etishdi. Musobaqada g'olib bo'lgan o'quvchilar maktab ma'muriyati tomonidan munosib sovg'alar bilan taqdirlandilar

Rishton tumani XTB tasarrufidagi 53-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Yosh kitobxon" to'garagi a'zolarining kitobxon o'quvchilari bilan birgalikda o'qigan kitoblari , yoqtirgan asarlari, sevimli yozuvchi va qahramonlari yuzasidan davra suhbatini o'tkazildi. Kitobxon o'quvchilarimizga yangi adabiyotlardan o'qishlari uchun homiyilar tomonidan kutubxonaga sovg'a qilishgan badiiy adabiyotlardan mutoala qilishlari tavsiya etildi.

Rishton tumani XTB tasarrufidagi 7-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Abdulla Oripov va O'tkir Hoshimov asarlari bilimdoni" ko'rik-tanlovi va adabiy kecha bo'lib o'tdi.

Rishton tumani 53-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Aprel-amaliy fanlar oyligi" munosabati bilan texnologiya va tasviriy san'at fanlari kesimida ko'rgazmalar tanlovi o'tkazildi.

Rishton tumani XTB tasarrufidagi 62-umumiy o'rta ta'lim maktabi sinf soatida faxriy ustozlar bilan suhbat bo'lib o'tdi. Suhbat davomida o'quvchilar o'zlarining qiziqqan savollariga javoblar olishdi. Shuningdek o'zlari qiziqqan, orzu qilgan kasblar haqida ham ma'lumotga ega bo'lishdi.

2021-04-23 18:40:40